

"VAZIRLIK VA IDORALARDA ICHKI AUDIT JARAYONLARI VA NAZORAT OBYEKTлари BILAN TANISHISH (QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI MISOLIDA)

Azizova Mardona Ravshan qizi

Bank moliya akademiyasi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17548714>

Annotasiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasining Qishloq xo'jaligi vazirligi misolida ichki audit jarayonlari va nazorat obyektlari tahlil qilinadi. Qishloq xo'jaligi sohasidagi nazorat va audit faoliyatining ahamiyati, samaradorligi va ularning strategik roli ko'rib chiqiladi. Ichki audit jarayonlari muhim boshqaruv vositasi sifatida, vazirliklar va idoralarda moliyaviy resurslar, xatarlarni boshqarish, operatsion samaradorlik va shaffoflikni ta'minlash uchun qanday amalga oshirilishi lozimligi haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zi: ichki audit, nazorat, Qishloq xo'jaligi vazirligi, audit jarayonlari, nazorat obyektlari, moliyaviy resurslar, samaradorlik, xatarlarni boshqarish, operatsion samaradorlik, shaffoflik.

Abstract

The article analyzes internal audit processes and control objects using the example of the Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan. The importance, effectiveness and strategic role of control and audit activities in the agricultural sector are considered. Detailed information is provided on how internal audit processes, as an important management tool, should be implemented in ministries and departments to ensure financial resources, risk management, operational efficiency and transparency.

Keywords: internal audit, control, Ministry of Agriculture, audit processes, control objects, financial resources, efficiency, risk management, operational efficiency, transparency.

Kirish

Ichki audit — bu tashkilotning faoliyatini baholash va samaradorlikni oshirishga qaratilgan tizimli jarayon bo'lib, u barcha sektorlar, jumladan davlat va jamoat sektorlarini o'z ichiga oladi. Vazirlik va davlat idoralarida ichki audit jarayonlari davlatning moliyaviy resurslarini boshqarish, korrupsiyaga qarshi kurashish, va umumiy samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur maqolada, vazirlik va idoralarda ichki audit jarayonlari, nazorat obyektlari va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan faoliyatlar tahlil qilinadi.

Ichki audit, tashkilotning moliyaviy va operatsion jarayonlarini tekshiruvchi faoliyatdir. Tashkilot ichidagi protseduralar, qoidalar, resurslardan foydalanish va qarorlar qabul qilish jarayonlari ichki audit tomonidan baholanadi. Ichki auditning asosiy vazifalari quyidagilardir:

- Moliyaviy holatni tekshirish: Tashkilotning moliyaviy holati, byudjet va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar tekshiriladi.
- Operatsion faoliyatni baholash: Ichki audit jarayonida tashkilotning operatsion samaradorligi, xatolarni aniqlash va resurslardan optimal foydalanish ko'rib chiqiladi.
- Xavflarni baholash va boshqarish: Ichki audit, tashkilot faoliyatidagi potensial xavflarni baholaydi va ularni minimallashtirish uchun tavsiyalar beradi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligida ichki audit tizimi faoliyati "Ichki audit to'g'risida"gi Nizom (Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-martdagi 130-son qarori) hamda "Davlat tashkilotlarida ichki auditni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnoma asosida olib boriladi.

Ichki auditning asosiy maqsadi — tashkilotning moliyaviy va boshqaruv faoliyatida qonuniylik, samaradorlik, tejamkorlik va natijadorlik tamoyillariga rioya etilishini baholash hamda aniqlangan xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ichki audit xizmati davlat organi va tashkilotining markaziy apparatida boshqa tarkibiy bo'linmalardan mustaqil ravishda tashkil etiladi. Bu xizmat bevosita davlat organi yoki tashkilotining birinchi rahbariga bo'ysunadi va hisobdordir. Bu mustaqillik ichki auditorlarning o'z vazifalarini xolisona va samarali bajarishi uchun kafolatdir. Ichki audit xizmatining faoliyatiga davlat organlarining boshqa mansabdor shaxslari aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

2) Ichki auditni tashkil etish tamoyillari

Ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiradi. Faoliyatni tashkil etishda quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilinadi:

- **Mustaqillik:** Ichki audit xizmati davlat organi va tashkilotining asosiy faoliyati natijalariga javobgar emas va unga asosiy vazifalaridan tashqari boshqa funksiyalar yuklatilishi taqiqlanadi.
- **Hisobdorlik:** Ichki audit xizmati o'z faoliyati bo'yicha Davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlariga hisobdor bo'ladi. Shuningdek, choraklik va yillik hisobotlar Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etib boriladi.
- **Malaka talablari:** Ichki audit xizmati xodimlariga milliy malaka sertifikatiga ega bo'lgan shaxslar qabul qilinadi.
- **Xavflarni boshqarish:** Ichki audit tadbirlari "yuqori" xavf darajasiga ega bo'lgan obyektlarda majburiy tartibda, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi bilan kelishilgan holda o'tkaziladi.

Audit jarayonlari Qishloq xo'jaligi vazirligining markaziy apparati, viloyat boshqarmalari, shuningdek fermer xo'jaliklari, klasterlar va kooperativlar faoliyatini qamrab oladi. Ichki audit faoliyatining tashkiliy asoslari quyidagilardan iborat:

Ichki audit bo'limi quyidagi asosiy obyektlarda nazorat ishlarini olib boradi:

Ichki audit bo'limi asosiy obyektlari(1-jadval)

№	Nazorat obyektlari	Asosiy yo'nalishlar
1	Paxta-to'qimachilik klasterlari	Subsidiyalar, xomashyo xaridi, ishlab chiqarish tannarxi, eksport hisobotlari
2	Meva-sabzavot klasterlari	Mahsulot hajmi, eksportdan tushgan mablag'lar, shartnoma bajarilishi
3	Chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklari	Subsidiyalar va kreditlar sarfi, mahsuldorlik tahlili
4	Qishloq xo'jaligi kooperativlari va MChJlar	Moliyaviy intizom, buxgalteriya hisobi, soliq majburiyatlari
5	Hududiy boshqarmalar	Moliyaviy intizom, buxgalteriya hisobi, soliq majburiyatlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga asosan, Ichki audit bo'limi tomonidan nazorat obyektlari sifatida tanlangan klaster va xo'jaliklar bo'yicha olib borilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, audit faoliyati qishloq xo'jaligi tizimida moliyaviy intizomni mustahkamlash,

mablag'lardan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini shaffoflashtirishda muhim o'rin tutadi.

Paxta-to'qimachilik klasterlarida asosan subsidiyalar va xomashyo xarid jarayonlarida ayrim nomuvofiqliklar aniqlangan bo'lsa-da, so'nggi yillarda ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va eksport ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha ijobiy natijalarga erishilgan.

Meva-sabzavot klasterlarida mahsulot hajmi ortib borayotgan bo'lsa-da, eksportdan tushgan mablag'larning to'liq qayd etilishi va shartnomalar ijrosini nazorat qilish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababli, ushbu yo'nalishda audit nazorati yanada kuchaytirilishi lozim.

Chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarida subsidiya va kredit mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan muntazam monitoring o'tkazilmoqda. Audit natijalari ushbu sohada mahsuldorlik ko'rsatkichlarining 12-15% ga oshganini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi kooperativlari hamda MChJlarda moliyaviy intizomni mustahkamlash, buxgalteriya hisobi va soliq majburiyatlarini to'g'ri yuritish bo'yicha auditorlik tavsiyalari amaliyotga joriy etilmoqda.

Hududiy boshqarmalarda esa audit natijalari asosida ichki nazorat mexanizmlari kuchaytirilib, hisobotlarning elektron shaklda yuritilishi keng yo'lga qo'yilmoqda.

Umuman olganda, ichki audit bo'limining faoliyati klaster va xo'jaliklar samaradorligini oshirish, moliyaviy intizomni ta'minlash, shaffoflikni mustahkamlash hamda davlat mablag'laridan oqilona foydalanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ichki audit odatda 5 asosiy bosqichda amalga oshiriladi:

1. Audit rejasini tuzish – yil boshida tasdiqlangan audit rejasi asosida nazorat obyektlari tanlanadi.
2. Ma'lumotlarni yig'ish – shartnomalar, hisobotlar, buxgalteriya yozuvlari, bank hujjatlari tahlil qilinadi.
3. Tekshiruvni o'tkazish – joylarga chiqib, real dalillar yig'iladi, xo'jalik faoliyatining qonuniyligi va iqtisodiy samaradorligi baholanadi.
4. Tahlil va hisobot tayyorlash – aniqlangan kamchiliklar hujjatlashtiriladi, moliyaviy hisob-kitoblar solishtiriladi.
5. Tavsiyalar berish – kamchiliklarni bartaraf etish uchun tavsiyalar, avtomatlashtirish va nazoratni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Ichki audit boshqarmasi tomonidan

2024-yilning yanvar-iyul oylarida amalga oshirilgan ishlar.

(2-jadval)

Ko'rsatkich	Miqdor	O'tgan yilga nisbatan o'sish
O'tkazilgan ichki auditlar soni	148 ta	+13 %
Tahlil qilingan hujjatlar	9 450 dona	+11 %
Aniqlangan moliyaviy nomuvofiqliklar	124,6 mlrd so'm	-4,8 %
Tavsiya qilingan chora-tadbirlar	520 ta	+10 %
Takroriy tekshiruvlarda bartaraf etilgan kamchiliklar	91 %	+6 p.p.
Elektron audit tizimiga o'tgan obyektlar	47 ta (31 %)	+18 p.p.

Ichki audit jarayonlari va nazorat obyektlari bo'yicha tahliliy xulosa quyidagicha:

2024-yilda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimida ichki audit faoliyati yanada kuchaytirildi. Yil davomida 120 dan ortiq korxona va tashkilotlarda tekshiruv ishlari o'tkazilib, umumiy qiymati 1,2 trillion so'mga teng moliyaviy operatsiyalar nazorat qilindi. Quyidagi yo'nalishlar asosiy audit obyektlari sifatida belgilangan: klasterlar, fermer xo'jaliklari, tuman boshqarmalari, davlat buyurtmasi asosida ishlovchi korxonalar va byudjet tashkilotlari.

Ichki audit natijalariga ko'ra, eng ko'p aniqlangan muammolar hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq aks ettirilmaslari, hujjat aylanishidagi nomuvofiqliklar, shuningdek, sarf-xarajatlarning maqsadsiz yo'naltirilishi bilan bog'liq bo'lgan.

Jumladan:

Ichki audit nazorat obyektlari. (3-jadval)

Yo'nalish	O'rganilgan obyektlar soni	Aniqlangan kamchiliklar (mlrd so'mda)	Tavsiyalar soni
Paxta-to'qimachilik klasterlari	38	220,4	54
Meva-sabzavot klasterlari	27	96,8	31
Fermer xo'jaliklari	25	48,3	22
Tuman boshqarmalari	15	33,5	18
Byudjet tashkilotlari	12	28,1	16
Jami	117	427,1	141

Tahlil natijalariga ko'ra, paxta-to'qimachilik klasterlari eng katta moliyaviy aylanmaga ega bo'lgani sababli kamchiliklar miqdori ham yuqori bo'lgan. Biroq, ushbu klasterlarda audit nazoratlari tez-tez o'tkazilgani bois, aniqlangan kamchiliklar qisqa muddatda bartaraf etilgan.

Meva-sabzavot klasterlarida esa, asosan, hisobotdagi statistik ma'lumotlar bilan real hajmlar o'rtasida tafovut kuzatilgan. Ayrim hollarda eksport hajmlari oshirib ko'rsatilgan yoki ichki bozorga chiqarilgan mahsulotlar eksport sifatida qayd etilgan.

Fermer xo'jaliklari bo'yicha aniqlangan kamchiliklar ko'p hollarda buxgalteriya hujjatlarini yuritishda malaka yetishmasligi, shuningdek, elektron hisobot tizimlaridan to'liq foydalanilmaganligi bilan izohlanadi. Shu sababli, vazirlik tomonidan 2024-yilda 40 dan ortiq fermer xo'jaligi vakillari uchun moliyaviy hisob yuritish bo'yicha o'quv seminarlari o'tkazilgan.

Ichki audit boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan 141 ta tavsiyadan 118 tasi amalda bajarilgan bo'lib, bu 83,7 foizlik ijro ko'rsatkichini tashkil etadi. Qolgan tavsiyalar 2025-yil dasturiga kiritilgan.

Audit natijalari asosida elektron hujjat aylanish tizimini to'liq joriy etish, klasterlarning ichki moliyaviy monitoringini avtomatlashtirish, hamda har chorakda ichki audit tahliliy hisobotlarini ochiq e'lon qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, 2024-yilda Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan "AgroAudit" axborot tizimi sinov tariqasida ishga tushirildi. Ushbu tizim orqali moliyaviy hujjatlar, subvensiyalar, kreditlar va subsidiya ma'lumotlari real vaqt rejimida kuzatib borilishi yo'lga qo'yilmoqda.

Ichki audit natijalariga ko'ra 2024-yilda quyidagi tizimli muammolar aniqlangan:

- Ayrim klasterlarda hisobot ma'lumotlarining noto'g'ri kiritilishi (1–2 % holatlarda);
- Tender va xarid jarayonlarida hujjatlar to'liq rasmiylashtirilmagan;

- Subsidiyalarni taqsimlashda kechikish holatlari;
- Elektron audit platformasiga ulanish darajasi hali to'liq emas (faqat 31 % obyekt qamrab olingan).

Magistr amaliyotchi sifatida ichki audit bo'limi faoliyatida quyidagi yo'nalishlar bilan tanishdi:

- Audit jarayonining hujjatlashtirilishi va "Audit reestri" bilan ishlash;
- Shartnomalar va moliyaviy hisobotlarni real tahlil qilish;
- Audit dalolatnomasi va yakuniy xulosani tayyorlashda ishtirok etish;
- "E-Audit" platformasida tekshiruv natijalarini kiritish va solishtirma jadval tuzish;
- Tahlil natijalarini grafik va diagramma shaklida rasmiylashtirish.

Xulosa

Ichki audit jarayonlari bilan tanishish davomida o'rganilgan tajriba shuni ko'rsatadiki, bu tizim nafaqat moliyaviy nazorat vositasi, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi.

Audit natijalarining tahlili orqali klasterlar faoliyatida samaradorlik, shaffoflik va javobgarlik prinsiplari mustahkamlanmoqda.

Kelgusida ichki audit jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, sun'iy intellekt asosida tahlil qilish va nazorat obyektlarini risk darajasiga ko'ra saralash kabi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Vazirliklar va idoralarda ichki audit jarayonlari va nazorat obyektlari davlat sektorining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ichki auditning samarali ishlashi tashkilotlarning moliyaviy holatini nazorat qilish, operatsion jarayonlarni optimallashtirish va davlat resurslaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Shuningdek, ichki auditning zamonaviy texnologiyalar va malakali auditorlar yordamida takomillashtirilishi davlat sektorida shaffoflikni oshirishga va ijtimoiy ishonchni ta'minlashga hissa qo'shadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2020). *Ichki audit va nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida*. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Ichki audit markazi (2022). *Ichki audit va uning amalga oshirilishi*. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Ichki audit markazi.
3. Shamsiev, A. (2021). *Audit tizimi va uning ahamiyati: Qishloq xo'jaligi sektori misolida*. O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali, 10(3), 52-64.
4. Andreev, Y. & Ponomarev, D. (2020). *Risklar va nazorat: Davlat idoralari uchun strategiyalar*. Moliya va audit tahlili, 12(5), 118-130.
5. Umarov, B. (2023). *Ichki auditning tizim sifatida shakllanishi va amaldagi nazorat mexanizmlari*. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 14(2), 85-92.
6. Qishloq xo'jaligi vazirligi hisobotlari (2023). *Vazirlikning moliyaviy va operatsion faoliyati haqida ma'lumot*. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi.